

44. Burchakli bo'lish



Yondosh mavzu:
yengil sanoat ishchilari.

Bo'linuvchi, bo'luvchi, to'liqsiz
bo'linma, qoldiq.



1. Qaysi sonlar 5 ga qoldiqsiz bo'linadi? Ularning nimasi bir xil?

55

47

59

85

75

29

31

45

15



2. Bichuvchi gazmolni kesib, ko'ylakning bo'laklarini ajratib oladi. Bitta ko'ylakka 3 m gazmol ketadi. 27 m gazmoldan nechta ko'ylak chiqadi? 36 m gazmoldan-chi? 25 m gazmoldan-chi?



3. Bo'lishni yozishning uch xil usulini o'rganib oling. Ularning nimasi bir xil, nimasi har xil?

$$96 : 3 = (90 \text{ onl.} + 6 \text{ birl.}) : 3 =$$

$$= 90 \text{ onl.} : 3 + 6 \text{ birl.} : 3 = 30 \text{ onl.} + 2 \text{ birl.} = 32$$

$$96 : 3 = (90 + 6) : 3 = 90 : 3 + 6 : 3 = 30 + 2 = 32$$

$$\begin{array}{r} 963 \\ - 963 \\ \hline 0 \end{array}$$

Bo'lishni uch usulda bajaring.

$$86 : 2$$

$$63 : 3$$

$$48 : 4$$

Burchakli bo'lish

Bo'linuvchini burchakdan chapga,
bo'luvchini burchakka yozamiz.

Bo'lishni chapdan o'ngga qarab, katta
xonali sonlardan boshlaymiz.

Avval katta xonali sonni bo'luvchiga bo'lib,
hosil bo'lgan bo'linmani burchak ostiga
yozib boramiz.

Bu sondan ayirma va bo'luvchining
ko'paytmasini ayiramiz.

Qolgan xonali sonlarda ham xuddi shu amallarni takrorlaymiz.

-	2	8	4	2	
-	2			7	4
-	8				2
-	8				
		4			
-		4			
			0		



4. Burchakli bo'lishni bajaring.

$$9\ 663 : 3$$

$$8\ 442 : 2$$

$$66\ 993 : 3$$



5. Tenglamalarni yeching.

$$x + 2\ 678 = 46\ 464 : 2$$

$$50\ 000 - y = 84\ 848 : 4$$



6. Chizmalar bo'yicha ifodalar tuzib, ularni hisoblang.



Jami: 55 m.
Bir kesimada: ?

Jami: 669 kg.
Bir qopda - ?



Jami: 484 m.
Bir o'ramda - ?



7. Ifodani soddalashtiring.

$$a + 369 : 3 + 202 : 2$$

$$m + 505 : 5 + 909 : 9$$

$$484 : 4 - 555 : 5 + b$$

$$626 : 2 - 808 : 8 + n$$

44. Burchakli bo'lish




8. Ifodalar tuzing.

- a) Do'kondagi peshtaxtada a juft tufli bilan b juft shippak turibdi. Peshtaxtada jami necha juft poyafzal turibdi?
- b) Fabrikadagi ishchi har bir qutiga 3 tadan ro'molcha taxlaydi. n ta ro'molcha uchun nechta quti kerak bo'ladi?
- d) Bo'yinbog' bilan ikkita ilma tugma bir to'plam hisoblanadi.
 m ta bo'yinbog' uchun nechta ilma tugma kerak bo'ladi?



9. Kastunning har bir bo'lagi uchun ikki tomonidan 3 cm joy tashlash kerak bo'lsa, uni tikish uchun ketadigan gazmolning uzunligini toping.



10. To'rt nafar to'quvchi navbat bilan gilam to'qidi. Ularning har biri qolgan uch to'quvchi birgalikda ishlab, qancha vaqt sarflagan bo'lsa, shuncha vaqt sarfladi. Agar hammalari birga to'qishsa, gilamni necha marta tezroq to'qib bo'lishadi?



11. 12 metrlik matodan 4 ta ko'ylak tiksa bo'ladi. 28 ta ko'ylak uchun qancha mato kerak bo'ladi?



12. Tenglamalarni yeching. Javobini tekshiring.

$$x - 456 = 228 : 2$$

$$900 - y = 636 : 3$$